



R.SHEKSPIRNING XIVA XONLIGIGA TASHRIFI

Jaxongir Razzaqov

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email : yoshlar_education@mail.ru

ANNOTATSIYA

“Richmond Shekspirning Xivaga tashrifi” maqolasida ingliz diplomatining O‘zbekistonning tarixiy Xiva shahriga qilgan sayohati haqida batafsil ma’lumot berilgan. Muallif birlamchi manbalar va tarixiy ma’lumotlardan foydalangan holda R. Shekspirning Britaniya imperiyasi nomidan tashrifi chog‘ida Xiva bilan siyosiy munosabatlari haqida hikoyani taqdim etadi. Maqolada Xiva xonligining XIX asrdagi tarixiy sharoiti to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: Britaniya imperiyasi, Xiva xonigi, R. Shekspir, XIX asr tarixi

АННОТАЦИЯ

В статье «Визит Ричмонда Шекспира в Хиву» подробно описана поездка английского дипломата в исторический город Хиву в Узбекистане. Автор, используя первоисточники и исторические записи, предлагает увлекательное повествование о встречах Британской империей и ее политических отношениях с Хивой во время его визита. Статья хорошо проработана и дает ценную информацию об историческом контексте Хивинского ханства в XIX веке.

Ключевые слова: Британская империя, Хивинский хан, Р. Шекспир, история XIX века.

ANNOTATION

The article "Richmond Shakespeare's Visit to Khiva" provides a detailed account of the English diplomat's journey to the historic city of Khiva in Uzbekistan. The author, using primary sources and historical records, offers a captivating narrative of Shakespeare's encounters with British empire and its political relations with Khiva during his visit. The article is well-researched and provides valuable insights into the historical context of Khiva khanate during XIX century.

Key words: British Empire, Khan of Khiva, R. Shakespeare, XIX century history



XIX asrning 20–30-yillarida Britaniya imperiyasi O`rta Osiyo xonliklari jumladan Xiva xonligi bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlar o`rnatishga urunadi. XIX asr 40-yillariga kelganda ular O`rta Osiyo xonliklarida o`zlarining siyosiy jihatdan to`la hukmronliklarini o`rnatish va Rossiyaga qarshi uch xonlikdan iborat ittifoq tuzishga harakat qildilar. Inglizlar o`zlarining rejalarini amalga oshirish uchun O`rta Osiyoga yuborar edilar [8. 66-67].

Avvaliga Xivaga Kapitan Jeyms Ebbot yuboriladi. Ammo Ebbotdan biron daragi bo`lmaqach, uni balki xon tomonidan qatl qilingan yoki muzokaralar qanday kechganligini bilish, agar muvaffaqqiyatsiz yakun topgan bo`lsa, rus qullarini ozod qilish uchun ko`ndirish maqsadida Archi Todd ikkinchi josus, Ost Indiya kompaniyasi kollejida tahsil olgan 28 yoshli Richmond Kempbell Shekspirni yuboradi[9].

Ebbot esa, Aleksandrovsk fortiga yetib borginucha qaroqchilar tomonidan talanib, hamma bor-budi tortib olinadi. Ebbot qattiq jarohatlanadi. U Rossiyaga Xiva xonidan xat olib ketayotganini aytganda, qaroqchilarni uzr so`rab barcha talaganlarini qaytarib bergenlar. Ebbot jarohat bilan Aleksandrovka yetib keladi[5.241]. Shunday qilib, Ebbot o`z maqsadini amalga oshira olmagan va 1840- yil may oyida Aleksandrovskiy istehkomida Rossiya hukumati tomonidan qo`lga olindi. Bu haqida Orenburg general-gubernatori Perovskiy 1840-yilning 27-mayida vitse-kanslerga quyidagi xabarlarni yuborgan edi: “Oldin Ebbot komendaturada o`z hujjatlarini ko`rsatishdan bosh tortdi. Lekin qattiq talab qilingandan keyin, nihoyat, Ebbot Britaniyaning Hirotdagi elchisi Archi Todd qo`l qo`ygan ingliz tilida yozilgan passport yoki ochiq (hujjat) qog`ozini berdi. Hujjatning orqa tomonida forscha va alohida yarim qog`ozda fransuzcha tarjimasi berilgan. Hujjatning bu nusxasida, Ebbotning Hirotdan Xivaga yuborilganligi haqida ma’lumot berilsa, uning ingliz tilidagi asl nusxasida esa boshqa qo`l va boshqa siyoh bilan “...lozim bo`lib qolsa, Rossiya orqali qaytilsin”, - degan jumlalar yozilgan edi[8.160].

Shekspir bu voqealardan behabar edi. Xivada esa Ebbotni qaroqchilar talab o`ldirilganligi haqida mish-mishlar hukm surar edi. Shuning uchun Shekspir Xivadaliginining birinchi kuniyoq xon tomonidan zindonga hukm qilinadi.



Shunday vaziyatda Perovskiy qo`shini mag`lubiyati to`g`risida habar Xivaga yetib kelgach, Olloqulixon Ebbotning agar ruslar yutqazsalar bundanda ko`p sonli qo`shin bilan kelishi mumkinligi haqidagi so`zлari yodiga tushib, Shekspirni o`z oldiga taklif qilgan. Shekspir xon bilan muzokaralari natijasida uni rus qullarinig qolgan qismini ham ozod qilib Aleksandr fortiga olib borishga ko`ndirgan[5.246]. Shuningdek Shekspir Xivada Qo`qon xoni elchisni ham uchratib qolgan[6.101].

Ogahiyning yozishicha, Shekspir Xiva xoni Olloqulixon va uning vaziridan rus asirlari bilan birga Orenburgga yuborishlarini so‘ragan. Xonning roziligi bilan Shekspir rus asirlari orasida Xiva xonligidan Rossiyaga yuborilgan.

Shekspir Rossiya chegarasiga o‘tishi bilan o‘zini Xiva xonligidagi rus asirlarini “ozod etuvchi” deb e’lon qildi. Ingliz josusining rus asirlarini “qutqazuvchi” bo‘lib qoldi[8.160].

Shekspir Xivadagi rus qullari haqida kundaligiga yozar ekan shunday degan: ”Xon menga o`z ihtiyyoridagi qullarni Kaspiy dengizi sharqida joylashgan rus qala`siga olib borishni topshirdi. Qullar 300 erkak, 18 ayol va 11 bolalardir. Ularning orasida 10 yilan beri qullikda saqlanayotgan erkak va 16 yildan beri qul vazifasini bajarayotgan ayol ham bor. Ammo ularni bari yaxshi holatda. Ular Kaspiy dengizida baliqchilik qilayotganda yoki Orenburg atroflaridan olib kelingan” [5.248].

1840-yil 15-avgustga qadar jami 416 ta qul yig`iladi[1.42]. Shekspir yo`lga otlanadi. Rus qullariga agar qochgudek bo`lsalar o`lim jazosi tayin ekanligini aytgan. Bu bilan Shekspir ularni qonunlarsiz turkmanlarning qo`liga tushmasligini xohlar edi.

Shekspir Aleksandrovska yetib kelganda, rus qullardan ikkitasini ingliz tilida yozilgan xat bilan yuboradi. Aleksandrovsdagilar Shekspirni qabul qilishadi. Bu hududdan u Orenburgga jo`naydi. Shekspirni general Perovskiyning o`zi qabul qilib maqtovlar aytadi. Perovskiy buyrug`i bilan Orenburg va Astraxandagi 800 Xiva qullari ham ozod bo`ladi. Bu yerdan Shekspir Sankt-Peterburgga yuboriladi. Perovskiy shunga qaramay, Shekspirni josus ekanligini bilgan. Uni poytaxtga qadar qattiq qo`riqlab borishni buyurgan.



1840-yil 3-noyabr kuni Hirotdan yo`lga chiqganiga olti oy bo`lganda, Sankt Peterburgga yetib keldi. Nikolay I tomonidan qabul qilinib, hukmdordan maqtov eshitadi[5.254].

Shekspir 1841-yilda Londonda qirolicha Viktoriya tomonidan mukofotlanadi. Keyin yana Hindistonga qaytadi va 1861-yilda hastalikdan vafot etgan[2].

Ammo, Shekspirning faoliyatiga doir boshqa bir qarash ham bor. Rus tarixchilarida Shekspirning qullarni ozod qilishi joususning diplomatik mahorati bo`lib qolmasdan, balki, Xiva xonining Perovskiy ekspeditsiyasidan xavfsirashi orqali bo`lganligini yozishadi. Bundan tashqari N.A Xalfin ma`lumotiga ko`ra, Shekspir Aleksandrovsk va Orenburg orasidagi qalalarни o`rganish maqsadida yuborilib, shunchaki qullarni yetakchisi sifatida yo`lga tushgan. Shuningdek Xalfin Orenburgga Shekspir kelmasdanoq inglizlarning bu hududda josusi bo`lganligini aytadi. 1814-yilda Orenburgda asos solingan Britaniya bibliya jamiyati bo`lib, u xonliklar bilan yaqinligi tufayli aloqa o`rnatish imkonini berar edi. Shekspir Orenburgga kelganda ular bilan aloqa o`rnatgan bo`lishi mumkinligini bildirgan. Ammo Shekspir ham, Ebbot ham bu haqida kundaligida hech nima yozmaganlar[5.254].

Xalfin Moskvadagi Markaziy Davlat Harbiy Arxividagi hujjatlariga asoslangan. Unda 6996 raqamli mahsus ajratilgan hujjat bo`lib, u “Turkmanlardan tortib olingan ingliz xatlari” deb nomланади. Bu hujjatlar 26 ta varoqdan iborat bo`lib, XIX asr 30-40-yillaridagi Britaniyaning ushbu hududdagi asl maqsadlari haqida hikoya qiladi[3. 48]. 1873-yilda Xiva xonligiga yurish vaqtida rus generali Golovachov turkmanlardan 1840-yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan R. Shekspirga oid hujjatlarni topib olgan[7.394]. U biz aytayotgan 6996-hujjat bo`lib, asosan 1840-yil 3-fevralda va 24-martda Britaniya tashqi ishlar vaziri Lord Palmerston tomonidan Sankt-Peterburgdagi Britaniyaning Rossiyyadagi elchisi Klanrikardga yozilgan ikkita xatlardir. Ushbu xatlar 1840-yil 20-aprelda Hindiston general-gubernatori Lord Oklandga yuborilgan. Hindistonadgi tashqi ishlar departamenti boshlig`i Maddok xatni Afg`onistonadagi elchi Maknatenga bergen. Maknaten esa Hirotdagi konsul Archi Toddga yuborgan. Archi Todd esa xatlarni Xivadagi Shekspirning qo`liga yetib kelishini ta`minlagan. Shu



orqali inglizlar o`z davlatlarining Markaziy Osiyodagi siyosatiga bog`liq hukumat qarashlarini bir-biriga yetkazganlar.

Birinchi xatda Klanrikardga Rossiyanı Hindistonga kirmasligi uchun Xivada ushlab turish va xonlikni saqlab qolish yozilgan edi. Ikkinci xatda esa, Palmerston: “Xivaning bosib olinishi Rossiyaga Amudaryoni quyi qismi ustidan nazorat imkonini beradi. Shuning uchun mudofaani kuchaytirish uchun Amudaryoni yuqori qismini egallash zarur”, - deyilgan edi. Bu xatni tasdig`i sifatida shuni aytish mumkinki, 1839-yilda Misr sultoni Muhammad Ali Britaniya ko`magida isyon ko`tarib Rossiya qo`llayotgan Turkiyadan Arabiston, Livan va Suriyani tortib olgan edi. Aynan shu yili Britaniya ham Archi Todd vositasida Hirot hukmdori Kamron bilan shartnoma tuzib, ichki va tashqi masalalarda hukmronlik o`rnatgan edi. Afg`on amiri Sho`ja esa allaqachon Brtitaniyaga sodiq bo`lgan edi. Bu inglizlarga Panj va Vahsh daryolari va Pomirga o`tishga erkinlik bergen. Bu rejalar xatto Perovskiyning Xiva yurishidan ham avval tayyorlangan bo`lib, unda o`zbek xonliklari hududini qo`shilishi ham bor edi.

Shekspirni hujjalari ko`ra, Qobul va Hirotdagи Britaniya rezidensiyalari bilan O`zbek xonliklari o`rtasida qandaydir juda ham tezkor aloqa vosita yo`llari bo`lgan. Negaki, Shekspirni Xivadagi xatlari Hirot, Qobul undan so`ng Kalkuttaga muntazam yetib borib turgan. Aynan shunday aloqa vositalaining bo`lishi tufayli ham Shekspirni qo`lida shunday muhim va o`ta mahfiy hujjalarni bo`lgan.

Ogahiyning yozishicha, rus asirlarini o‘z vatanlariga kuzatish Rossiya tomonidan Aitovga, Xiva xoni tomonidan mufti Otaniyozxo‘jaga topshirilgan. Shekspirga esa faqat karvon bilan birga kelishga ruxsat berilgan edi[8.161].

Shekspir Aleksandr fortidan Orenburgga tomon yo`lga tushayotganida o`zining shahsiy xat tashuvchisiga Archi Toddga maktub yuborganligini yozadi. Shekspir Orenburgda, undan so`ng Sankt-Peterburgda bu qadar mahfiy hujjalni ko`tarib yurmaslik uchun uni Archi Toddga qaytargan bo`lishi mumkin. Xabarchi ortga qaytishda, turkmanlar tomonidan talangan va xat olib qo`yilgan bo`lishi mumkin. Yana bir tahmin esa bu xujjalarni Jeyms Ebbotga tegishli bo`lib, yuqorida aytganimizdek qaroqchilar tomonidan talangan edi. O`sha vaqtida xatlardan ayrılgan bo`lishi mumkin[3.48-51].



XIX asrning 30-yillarida Xiva xonligida ingliz agressorlarining tajovuzkorlik ishlarini fosh etishda V. Luganskiyning 1839-yili “S. Peterburgskie Vedomosti”ning 24-sonida bositgan hikoyasi katta ahamiyatga ega. V. Luganskiy o‘z hikoyasida savdogar niqobi bilan Eron orqali Xivaga o‘tgan ingliz agentlari to‘g‘risida qiziq ma’lumotlar keltiradi. “Shu yilning bahorida – deb yozadi u, - turkmanlar yetakchiligidida Eron orqali Xivaga besh yoki yetti nafar ingliz kelgan. Aytishlaricha, ular savdogarlar bo‘lib,...kuzatuvchilar (turkmanlar) Xiva hukmronlari bilan kelishib olib, Buxoroga emas, Xivaga olib kelganlar. Xon bularni shaharning chekkasidagi uylardan biriga qamab qo‘ygan, ular bu yerda ancha yotishgan. Nihoyat, hayit kuni ular bo‘shatilgan va kun bo‘yi ozod yurganlar, ammo bu kun ular uchun oxirgi ozodlik kuni bo‘lgan. Ertasiga erta bilan bu inglizlarni ushlab, shahar chekkasiga olib chiqqanlar va xonnning huzurida ularni so‘roq qilganlar. Ular bo‘lsa, har gapda Buxoroga savdo ishi bilan ketayotganliklarini aytishgan. Ammo xon bularni o‘ldirishga buyurgan[8.163-164].

Richmond Shekspirning Xiva xonligidagi harakatlari natijasida endi xonlik Britaniya bilan yaqinlasha boshladi. Bu Rossiya hukmron doiralarini e`tiborsiz qoldirmadi. Bundan tashqari, Britaniyaning Afg`onistonidagi harbiy harakatlaridan tashvishga tushgan Rus hukumati harakatni boshlab yubordi. Inglizlar ham o‘z ta`sirlarini yanada kuchaytirish maqsadida 1838-yilda Charlz Stoddartni Buxoroga yuboradilar. Ammo Buxoro bilan munosabat esa Xiva xonligidan farqli ravishda butunlay boshqacha tus oldi[3.52-53].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aberigh-Mackay G.R. Notes on Western Turkistan. Calcutta. Thacker Spink.1875. – 96 p.
2. Archive of the Royal Society for Asian Affairs. Specific Collections. Shakespear Family. Sir, Richmond Campbell, 1812-1861.
3. Bondarevskiy G. L. The Great Game: A Russian Perspective. PO Box 35 Hastings. East Sussex, 2002. – 103 p.
4. Grover John. The Bukhara Victims. London. Chapman and Hall.1855. – 367 p.



5. Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006. – 590 p.
6. Kaye William. Lives of Indian Officers. London. A. Strahan and Co., 1867. – 502 p.
7. Macgahan J. A. Campaign on the Oxus and fall of the Khiva. London. Sampson low. 1876. – 438 p.
8. Мухаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар.-Т.: Фан. – 224 б.
9. <http://www.leicestergalleries.com/19th-20th-century-paintings/d/jean-baptiste-tassin/21292>

